

BANKNING ICHKI NIZOMI
“HAMKORBANK” ATBNING EMISSIYA SIYOSATI

Ro‘yxatdan o‘tgan raqami:

02-4/14 XЖ

Ro‘yxatga olingan sana:

02.02.2021

Qaror qabul qilgan organ:

Bank kengashi

Qabul qilingan hujjat:

Bank Kengashining qarori

Raqam va sana:

2021-yil 27-yanvar kungi, 3-son

Andijon – 2021-yil

“Hamkorbank” ATB Kengashining 2021-yil 27-yanvardagi 3-son qaroriga ilova

“HAMKORBANK” ATBning Emissiya siyosati

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Emissiya faoliyatining maqsadi va strategiyasi

3-bob. Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish

4-bob. Bank tomonidan chiqariladigan qimmatli qog‘ozlarga qo‘yiladigan talablar

5-bob. Qimmatli qog‘ozlarni investorlarga joylashtirish

6-bob. Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni qaytarib sotib olish

7-bob. Qimmatli qog‘ozlarning likvidligini ta‘minlash

8-bob. Ma’lumotlarni oshkor etish

9-bob. Yakuniy qoidalar

1-ilova – “Hamkorbank” ATB qimmatli qog‘ozlarini chiqarish tartibi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu siyosat O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni, boshqa normativ-xuquqiy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (keyingi o‘rinlarda Markaziy bank deb yuritiladi) me‘yoriy hujjatlari va “Hamkorbank” ATB (keyingi o‘rinlarda – bank deb yuritiladi) Ustavi asosida ishlab chiqilgan.

Emissiya siyosati – bu bank likvidligini ta‘minlashga, kapital va resurs bazasini oshirishga, shuningdek, bank passivlarini qimmatli qog‘ozlar chiqarish orqali diversifikatsiya qilishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

2. Ushbu Siyosat bank qimmatli qog‘ozlarini muomalaga kiritishning maqsadi, vazifalari va tartibini belgilaydi hamda bank rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

3. Siyosatda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

aksiya – o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining

nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz;

obligatsiya - emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi;

depozitnyy sertifikat — bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz;

qimmatli qog'ozlar hosilalari — o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan opsiyonlar, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar, depozitar tilxatlar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar;

Yevroobligatsiyalar (Eurobonds) - xalqaro moliya bozoriga joylashtirilgan qarz qimmatli qog'ozlari, kuponli obligatsiyalar. Ko'pincha, emitent joylashgan mamlakatning pul birligidan boshqa valyutada baholanadi.

2-bob. Emissiya faoliyatining maqsadi va strategiyasi

4. Emissiya faoliyatining asosiy maqsadi kapitalni ko'paytirish, resurs bazasini kengaytirish va qimmatli qog'ozlar chiqarish vositasida bank passivlarini diversifikatsiya qilish hamda aholi va xo'jalik subyektlarining erkin mablag'larini jalb qilish hisoblanadi.

5. Bank emissiya faoliyatining maqsadlariga muvofiq tarzda quyidagi emissiya strategiyalari qo'llaniladi:

a) uzoq muddatli emissiya strategiyasi, ya'ni uzoq muddatli passivlarni shakllantirish maqsadida uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni chiqarish;

b) qisqa muddatli emissiya strategiyasi, ya'ni qisqa muddatli passivlarni shakllantirish maqsadida qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni chiqarish;

v) muddatsiz emissiya strategiyasi, ya'ni aksiyalarni chiqarish orqali ustav kapitalini oshirish.

6. Yuridik va jismoniy shaxslarning erkin mablag'larini ma'lum muddatga jalb qilish maqsadida bank belgilangan tartibda qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarishi mumkin.

7. Bank ustav kapitali aksiyadorlar tomonidan olingan bank aksiyalarining nominal narxda ifodalangan yig'indisidan iborat. Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalar chiqarish orqali oshirish mumkin.

8. Qimmatli qog'ozlari chiqarish to'g'risidagi qarorni qabul qilishdan avval quyidagilar aniqlangan bo'lishi lozim:

a) qimmatli qog'ozlarni chiqarishdan ko'zlangan asosiy maqsad;

b) qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishdan kutilayotgan samaradorlik;

v) qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan amaliy jarayonlar;

g) qimmatli qog'ozlar bozori, investorlar va ularning investitsiya dasturlari, bozordagi talab va taklifni o'rganish yoki tahlil qilish;

d) emissiya qimmatli qog'ozlarining muomalada bo'lish davri, bankning uzoq va qisqa muddatli kreditlash strategiyalarini inobatga olgan holdagi foyda stavkasi, jalb qilingan resurslardan samarali foydalanish hamda kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini aniqlash.

9. Emissiya siyosatining qimmatli qog'ozlar chiqarishdagi maqsadi quyidagilardir:

a) ustav kapitalini oshirish;

b) qarz resurslarini jalb qilish;

- v) bank likvidligini qo'llab-quvvatlash va foydani oshirish;
 - g) moliyaviy imkoniyatlarni oshirish va bank faoliyati sohalarini kengaytirish uchun tegishli sharoitlarni yaratish;
 - d) qarz mablag'larini jalb qilishning muqobil manbalarini izlash orqali xarajatlarni kamaytirish;
 - ye) yangi yanada jozibador va raqobatbardosh jamiyat mahsulotlarini taklif qilish.
10. Bank mustaqil ravishda amaldagi qununchilik va ushbu Siyosat doirasida emissiya faoliyati yo'nalishlarini aniqlaydi va chiqarilishi kerak bo'lgan qimmatli qog'ozlar turini belgilaydi.

3-bob. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish

11. Bank amaldagi qonunchilik va me'yoriy aktlar talabiga muvofiq tarzda qimmatli qog'ozlarning quyidagi turlarini chiqarish huquqiga ega:

- a) aksiyalar;
- b) obligatsiya i yevroobligatsiyalar;
- v) depozit sertifikatlari;
- g) qimmatli qog'ozlar hosilalari.

Chiqarilish shakliga ko'ra qimmatli qog'ozlar hujjatsiz elektron shaklda va qayd etish registrlaridagi yozuvlar shaklida muomalaga chiqarilishi mumkin.

12. Bank amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, qimmatli qog'ozlar hosillari va veksellar kabi qimmatli qog'ozlarni muomala muddati cheklangan holda hujjatli va hujjatsiz shaklda chiqaradi. Aktsiyalar hujjatsiz shaklda noma'lum muddatga chiqariladi.

13. Emissiya qimmatli qog'ozlarining daromad keltirish darajasi ularning muomala muddatiga muvofiq tarzda aniqlanadi.

14. Bankning ustav kapitali aksiyadorlar tomonidan sotib olingan bank aksiyalarining umumiy nominal qiymatidan iborat. Bankning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni chiqarish orqali oshirilishi mumkin.

15. Aksiyalarning qo'shimcha chiqarilishini faqatgina bank tomonidan avval joylashtirilgan barcha aksiyalar to'liq to'langanidan so'ng amalga oshirish mumkin. Aksiyalarning qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qaror faqat, bank ustaviga avvalgi aksiya chiqarilishining yakunlari bo'yicha kiritiladigan, joylashtirilgan va e'lon qilingan aksiyalarning yangi miqdoriga nisbatan bo'lgan o'zgarishlar davlat ro'yxatidan o'tganidan so'nggina qabul qilinishi mumkin.

16. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini chiqarish to'g'risidagi qaror quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) bankning to'liq nomlanishi, uning joylashuvi (pochta adresi);
- b) emissiya qimmatli qog'ozlarini chiqarish to'g'risidagi qaror tasdiqlangan sana;
- v) emissiya qimmatli qog'ozlarini chiqarish to'g'risidagi qarorni tasdiqlagan bank boshqaruv organining nomi;
- g) emissiya qimmatli qog'ozlarining toifasi va turi hamda ularning chiqarilish shakli;
- d) emissiya qimmatli qog'ozlari egalarining huquqlari;
- ye) chiqarilgan emissiya qimmatli qog'ozlari miqdori;
- j) emissiya qimmatli qog'ozlarining nominal qiymati;
- z) emissiya qimmatli qog'ozlarini joylashtirishning shartlari va tartibi;
- i) joylashtirish usuli va narxi;
- k) joylashtirish muddati;
- l) to'lov shartlari va tartibi;
- m) muomalada bo'lish tartibi va muddatlari, to'lab tugatish hamda daromadlarni to'lash

shartlari (obligatsiyalar uchun);

- n) bank tomonidan olingan mablag'larni qaytarish tartibi;
- o) bank tomonidan qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish tartibi.

17. Emissiya qimmatli qog'ozlarini chiqarish to'g'risidagi qaror bank boshqaruvining vakolatli organi tomonidan qonunchilik va jamiyat ustaviga muvofiq tarzda tasdiqlanadi.

18. Bank obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi qarorni qabul qilish vaqtidagi o'z kapitalining miqyosi doirasida obligatsiyalar chiqarish huquqiga ega. Obligatsiya summasi bank kapitali miqyosidan oshib ketgan taqdirda, bank oshib ketgan summani ta'minot taqdim etishga majbur.

19. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorning bir nusxasi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida qoladi, bir nusxasi bankga beriladi va bir nusxasi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga topshiriladi.

20. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror bitta chiqarishdagi qimmatli qog'ozlarni ham xususiy, ham ommaviy joylashtirishni nazarda tutilmasligi kerak (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumatining qarorlaridan kelib chiqadigan holatlar bundan mustasno).

21. O'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi ro'yxatdan o'tgan qarorni o'z kuchini yo'qotgan deb topish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

22. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish jarayoniga quyidagilar kiradi:

a) emissiyaviy faoliyatning maqsad va strategiyasidan kelib chiqib, bank Boshqaruvi va G'aznachilik departamenti qimmatli qog'ozlar chiqarish tashabbuskorlari hisoblanadi;

b) qimmatli qog'ozlar bilan ishlash va birja xizmatlari ko'rsatish bo'yicha tarkibiy bo'linma qimmatli qog'ozlar bozoridagi vaziyatni, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabni, qimmatli qog'ozlarning likvidligini, kutilayotgan stavkalarini, ularning raqobatbardoshligini, to'lov muddatini o'rganadi, ular asosida taklif tayyorlanadi;

v) G'aznachilik departamenti bank ko'rsatkichlaridan kelib chiqib qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish yo'li bilan kapitalni ko'paytirish va bankning resurs bazasini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

g) G'aznachilik departamenti likvidlik va moliyaviy risklarni boshqarish qo'mitasiga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning turlari, to'lash muddatlari va foiz stavkalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi;

d) likvidlik va moliyaviy risklarni boshqarish qo'mitasi qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish bo'yicha takliflarni o'rganib, muhokamadan so'ng qimmatli qog'ozlarni chiqarish bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi;

ye) bank Boshqaruvi likvidlik va moliyaviy risklarni boshqarish qo'mitasining muomalaga chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qarorini tegishli tartibda ko'rib chiqib, quyidagi qarorni qabul qiladi:

j) ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalar chiqarish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qaror bank kengashi tomonidan qabul qilinadi, agar unga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bunday vakolat berilgan bo'lsa. Obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, qimmatli qog'ozlar hosilalari va veksellar kabi qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror bank Kengashi tomonidan qabul qilinadi;

z) qimmatli qog'ozlar bilan ishlash va birja xizmatlari ko'rsatish bo'yicha tarkibiy bo'linma qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror loyihasini/qimmatli qog'ozlar emissiya

risolasi/qimmatli qog'ozlarni chiqarish shartlarini tayyorlaydi va bank Kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritiladi;

i) qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror/qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi/qimmatli qog'ozlarni chiqarish shartlari belgilangan tartibda bank Kengashi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng qimmatli qog'ozlar bilan ishlash va birja xizmatlari bo'yicha tarkibiy bo'linma ro'yxatdan o'tkazish uchun vakolatli davlat organiga 30 kun ichida taqdim etadi;

k) davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oshkor qilinadi;

l) muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bankning hududiy filiallari tomonidan belgilangan tartibda taqsimlanadi va joylashtiriladi;

m) qimmatli qog'ozlarni chiqarish natijalari to'g'risidagi bildirishnoma emitentning rahbari, uning bosh buxgalteri yoki ularning vazifalarini bajaruvchi shaxslar tomonidan imzolash sanasi ko'rsatilgan holda imzolanaadi. Emitentning qimmatli qog'ozlarini chiqarish natijalari to'g'risidagi bildirishnomani imzolagan mas'ul shaxslarning imzolari muhrlangan bo'lishi kerak.

“Hamkorbank” ATB qimmatli qog'ozlarini chiqarish jarayoni 1-ilovada keltirilgan.

23. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati bank ustav kapitalining 20 foizidan oshmasligi kerak.

24. Bankning aksiya va obligatsiyalarini muomalaga chiqarish hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonunida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

25. Bank depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarish hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonunida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

26. Bankning yevroobligatsiyalarini (Eurobonds) muomalaga chiqarish va davlat ro'yxatidan o'tkazish xalqaro qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

27. Qimmatli qog'ozlar bilan ishlash va birja xizmatlari ko'rsatish bo'yicha tarkibiy bo'linma bank nomidan o'zining qimmatli qog'ozlar emitenti va qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi sifatidagi faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonuni, «Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'g'risida»gi nizomi va ichki me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartiblarda ma'lumotlarni taqdim etadi.

4-bob. Bank tomonidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlarga qo'yiladigan talablar

28. Bank ustav kapitali milliy valyutada shakllantiriladi hamda bank ta'sischilari va aksiyadorlari tomonidan kiritilgan pul mablag'laridan yoki davlat qimmatli qog'ozlaridan tashkil topadi. Quyidagi holatlar bundan istisno:

- a. bank aksiyalarini bank kreditorlari orasida joylashtirish va ularni bankning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar oldidagi har qanday huquqlarini (talablarini) hisobga olgan holda to'lab berish;
- b. qimmatli qog'ozlarni bank aksiyalariga konvertatsiya qilish;
- c. bankning joylashtirilgan bir turdagi aksiyasini ushbu bankning boshqa turdagi aksiyasiga almashtirish;
- d. bank ustav kapitalini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan, shuningdek majburiyat yuklatilgan boshqa vositalardan foydalanish taqiqlanadi.

Tizimli moliyaviy inqiroz holatida bank aksiyalari O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan davlat qimmatli qog'ozlari evaziga xarid qilinishi mumkin.

29. Bank tomonidan obligatsiyalar quyidagi shartlarga amal qilgan holda chiqariladi:

a) auditorlik tashkiloti xulosasi bilan tasdiqlangan va obligatsiyalarni chiqarish sanasida mavjud bo'lgan emitent kapitali miqdori doirasida;

b) mustaqil reyting bahosi va auditorlik tashkilotining so'nggi uch yil davomida rentabillik, to'lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlikning ijobiy ko'rsatkichlarini tasdiqlovchi xulosasini olgandan so'ng;

v) auditorlik tashkiloti xulosasi bilan tasdiqlangan va obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi o'z kapitali miqdori doirasida;

g) auditorlik tashkilotining oxirgi uch yil davomida rentabillik, to'lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlikning ijobiy ko'rsatkichlarini tasdiqlovchi xulosasini, shuningdek, qonunchilik bilan belgilangan tartibda mustaqil reyting bahosini olgandan so'ng.

30. Bank tomonidan depozit sertifikatlar quyidagi talablarga amal qilgan holda chiqariladi:

a) depozit sertifikatlari hujjatli shaklda chiqariladi;

b) depozit sertifikati tovarlarni sotib olish yoki ko'rsatilgan xizmatlar (ishlar) uchun to'lashda hisob-kitob yoki to'lov vositasi bo'lib xizmat qila olmaydi;

v) depozit sertifikatlarini sotib olish va sotish bo'yicha naqd hisob-kitoblar naqd pulsiz shaklda, jamg'arma sertifikatlari bo'yicha - naqd pulsiz va naqd pul shaklda amalga oshiriladi;

g) sertifikatlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi. Chet el valyutasida depozit sertifikatlarini chiqarish taqiqlanadi;

d) sertifikatlar 6 oydan 3 yilgacha muddatga chiqariladi (sertifikat berilgan kundan boshlab sertifikat egasi tomonidan depozit talabi amalga oshirilgan kungacha).

5-bob. Qimmatli qog'ozlarni investorlarga joylashtirish

31. Bank qimmatli qog'ozlarni mustaqil ravishda yoki investitsiya vositachilari xizmatlaridan foydalangan holda joylashtirishi mumkin.

32. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish quyidagi turlarda amalga oshirilishi mumkin:

a) qimmatli qog'ozlarni xususiy joylashtirish (oldindan ma'lum bo'lgan, soni cheklangan investorlar orasida ommaviy e'lon bermagan va reklama kampaniyasi o'tkazmagan holda yopiq obuna qilish);

b) qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish (soni cheklanmagan investorlar orasida reklama kampaniyasini o'tkazgan holda ochiq obuna qilish).

33. Bank emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning haqiqatda joylashtirilgan sonini ularning chiqarilishi yakunlari to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatadi. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi yakunlari to'g'risidagi bildirishnomani taqdim etish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

34. Bank chiqarilayotgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda nazarda tutilgan muddatda tugallashi shart, bu muddat qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

35. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot belgilangan tartibda oshkor qilinganidan keyin kamida ikki hafta o'tgach amalga oshiriladi.

36. Bank investorga qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish shartlari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi shart.

37. Ustav fondining (ustav kapitalining) ellik foizidan ortig'i davlatga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlar bank aksiyadorlari bo'la olmaydi.

38. Boshqa banklar bankni aksiyalarini bevosita yoki bilvosita olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart. Banklar boshqa bankning ustav kapitalidagi ulushini

ko'paytirish uchun Markaziy bankning takroriy dastlabki ruxsatnomasini olishi shart.

39. Imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va (yoki) oxirgi benefitsiar mulkdorning shaxsini oshkor etishni hamda moliyaviy operatsiyalarni o'tkazishda axborot taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatda va hududda yashaydigan norezident bo'lgan jismoniy shaxslar hamda shunday davlatda ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, aksiyadorlar (ishtirokchilar), oxirgi benefitsiar mulkdorlar bank aksiyalarining bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchilari bo'lishi mumkin emas.

40. Agar bankning aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligini olish talab etilsa, bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun berilgan ariza Markaziy bank tomonidan monopoliyaga qarshi organning qarorini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi.

41. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomasiz tuzilgan bank aksiyalarini olishga oid bitimlar haqiqiy emas deb hisoblanadi.

42. Depozit sertifikatlarini joylashtirish va ularning muomalasi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bank depozit sertifikatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazgandan so'ng joylashtirish G'aznachilik boshqarmasi tomonidan quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

a) yuridik shaxslarning mijozlari bilan depozit sertifikatlarini berish shartlariga muvofiq shartnomalar tuzish;

b) ushbu shartnomaga muvofiq mijoz nomiga bank depozit sertifikatlarini berish (agar mijoz sertifikatni bankda saqlashga rozi bo'lsa, saqlash shartnomasi va qabul qilish va topshirish dalolatnomasini rasmiylashtirish zarur) va sertifikatni mijozga berish;

v) mijoz depozit sertifikatining amal qilishini muddatidan oldin tugatishni talab qilganda, depozit sertifikatlari bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash, depozit sertifikatlarining amal qilishini tugatish va boshqa shartlar har bir depozit sertifikatini chiqarish shartlariga muvofiq ko'rib chiqiladi.

43. Veksellarni joylashtirish va ularning muomalasi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

44. Chiqarilgan va joylashtirilgan qimmatli qog'ozlarni hisobga olish "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaga (11.07.2008-y. 1834-son) muvofiq amalga oshiriladi. Analitik hisob har bir qimmatli qog'oz egasi uchun alohida yuritiladi.

45. Bank G'aznachilik Departamentining qimmatli qog'ozlar bilan ishlash bo'yicha tarkibiy bo'linmasi Buxgalteriya hisobi va hisobotiga tegishli farmoyishlar beradi:

a) davlat ro'yxatidan o'tishda qimmatli qog'ozlarni balansdan tashqari hisoblardagi ro'yxatga kiritish uchun;

b) qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda hisobvaraqlarda aks ettirish maqsadida: 30318 yoki 30315 aksiyalar uchun, obligatsiyalar uchun 23602, depozit sertifikatlari uchun 23606, chiqarilgan yevroobligatsiyalar uchun 23610;

v) qimmatli qog'ozlar egalari reestridagi o'zgarishlarni jamiyat hisobvaraqlarida reestrga muvofiq tarzda aks ettirish uchun.

46. Foizlarni hisoblab chiqarish va qarzdor qimmatli qog'ozlarni sotib olish operatsiyalar bo'limi tomonidan qimmatli qog'ozlarni chiqarish shartlariga va mulkdorlar reestriga muvofiq amalga oshiriladi.

47. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egalarining reestri Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan yuritiladi va bank so'roviga ko'ra zarur ma'lumotlarni taqdim etadi. Qimmatli

qog'ozlar va birja xizmatlari bo'limi tomonidan reestrda so'rov tayyorlanadi.

6-bob. Bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni qaytarib sotib olish

48. Bank o'zi tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlardan kelib chiqadigan barcha majburiyatlar bo'yicha belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

49. Bank tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlarni va qarzning asosiy summasini to'liq to'lab berishi shart.

50. Bank amaldagi qonunchilikka muvofiq emissiya qimmatli qog'ozlari bo'yicha zaxira fondini yaratish huquqiga ega.

7-bob. Qimmatli qog'ozlarning likvidligini ta'minlash

51. Bank o'zi tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning likvidligini saqlab turishi lozim. Qimmatli qog'ozning likvidligi deganda, muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlarning tez va osonlik bilan naqd va naqdsiz pul mablag'lariga aylanish qobiliyati tushuniladi.

52. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarining (aksiyalardan tashqari) likvidligini ta'minlash uchun bank, investor yoki mijoz bilan kelishilgan holda, to'lov muddati tugamasdan avval qimmatli qog'ozlarni belgilangan tartibda qaytarib sotib olishi mumkin.

53. To'lov muddati tugagunga qadar qaytarib sotib olingan qimmatli qog'ozlar (aksiyalardan tashqari) bank tomonidan ikkilamchi bozorga chiqarilishi mumkin.

54. Qimmatli qog'ozlar chiqarilishi bilan bog'liq xavflarning oldini olish maqsadida bank ularni amaldagi qonunchilikka muvofiq sug'urtalashi mumkin.

55. Qimmatli qog'ozlar daromadlilikining haqiqiy darajasi ularning jozibadorligiga, kotirovkalarning o'sishiga va moliya bozorining holatiga bog'liqdir.

8-bob. Ma'lumotlarni oshkor etish

56. Bank quyidagilarga majburdir:

a) qimmatli qog'ozlar emissiya risolasini va emitentning yillik hisobotini barcha manfaatdor shaxslar tanishib chiqishi uchun taqdim etish;

b) qimmatli qog'ozlarni joylashtirish boshlanishiga kamida ikki hafta qolganida qimmatli qog'ozlar emissiya risolasining matni bilan tanishib chiqish joyi va tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish;

v) yillik hisobotni aksiyadorlarning yoki bankning boshqa oliy boshqaruv organining yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilganidan keyin uch hafta ichida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish;

g) bankning har chorak yakunlariga doir hisobotlarini hisobot oyidan keyingi bir oy ichida qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga oshkor etish;

d) bankning faoliyatidagi muhim fakt haqidagi xabarni u yuz bergan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish.

57. Bank investorlarga qonunchilikka muvofiq tarzda boshqa ma'lumotlarni ham oshkor qilishi mumkin.

9-bob. Yakuniy qoidalar

58. Ushbu siyosat qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar, Bank Ustaviga, Bankning ichki hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar, Bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgarishi munosabati bilan va boshqa hollarda o'zgartirilishi va/yoki to'ldirilishi mumkin.

59. Agar ushbu siyosatda ko'rsatilgan qoidalar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va/yoki bank ustavida belgilangan normalar o'rtasida qarama-qarshiliklar aniqlansa,

siyosatga belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik va bank ustavi talablaridan kelib chiqqan holda ish yuritiladi

60. Mazkur hujjat qabul qilinganligi munosabati bilan bank Kengashining 2020-yil 14-fevraldagi 3-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Hamkorbank" ATBning emissiya siyosati o'z kuchini yo'qotadi.

**Chet el kapitali ishtirokidagi “HAMKORBANK” aksiyadorlik tijorat bankining
qimmatli qog‘ozlarini chiqarish tartibi**

